

MUSIQA MASHG'ULOTLARIDA MUSIQANI IDROK ETISHNI O'RGATISH
USLUBLARI

Sadriiddinov Mo`minjon Tolibjonovich

*Yunus Rajabiy nomidagi**O`zbek milliy musiqa san'ati**instituti o`qituvchisi*

Annotatsiya: *maqolada musiqa mashg'ulotlarida musiqani har tomonlama idrok etish, his qilish, uning har bir tembr, ritmini ilg'ay olish to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan. Musiqani idrok etish jarayonini o'quvchilarga o'rgatish vaqtida qandayaa uslublardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan*

Kalit so'zlar: *idrok, ta'sir, kuy, ritm, tembr, tinglovchi, sezgi, tarbiya, tafovut.*

Musiqiy idrokning to'laqonliligi, musiqiy ifoda vositalarini tushunish imkoniyati, intensivlik va musiqiy kechinma turlari har bir odamda har xil bo'lib, o'z xususiyati hamda sabablariga ega. Nima uchun musiqani hamma eshitadiyu, lekin hamma ham idrok eta olmaydi? Nima uchun ba'zi yevropalik tinglovchi Sharq musiqasini, ba'zi Sharq tinglovchisi esa Yevropa musiqasini har doim ham to'la tushunavermaydi? Idrok narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali ongimizda aks etishidir. Psixologiyada idrok predmetlilik, yaxlitlik, strukturalilik, barqarorlik kabi o'ziga xos sifatlarga ajratiladi.

Quyida Yevropa musiqasining Sharq tinglovchisi tomonidan tushunilishi va idrok etilishiga mashhur o'zbek shoiri furqatning musiqiy idroki e'tiborga molik. U 1980 yilda Toshkentdagi rus musiqa jamiyati konsertida qatnasgan va bu haqda o'zining tassurotlari bitilgan "Nag'ma va nag'magar va aning cholg'usi va ul nag'ma ta'siri xususida" she'rini yozadi. bu she'rida u fortepiano cholg'usi hamda ijrosi haqida shunday yozadi:

O'zimga tushdi bir kun bu ahvol,
Bor ekan nag'ma oning oti rayol,
Eshittim bir qiz anda bahri najot,
Qilur nag'ma tili bilan munojot.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, tinglovchilarning musiqani qabul qilishlarida tafovutlar mavjud bo'ladi. bir tomondan musiqani tushunmaslik, qabul qilmaslik, boshqa tomondan esa, musiqaiy idrokning teranligi va nozikligi ko'rinib turibdi. Musiqani qabul qilishdagi bu tafovutlar hayot, turmush, tarbiya, musiqiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi, musiqiy eshitish qobiliyati, musiqa san'atini tushunishga tayyorlik va bunga bo'lgan hohish bilan bog'liq bo'lgan bir qator ob'yektiv hamda sub'yektiv sabablarga ega.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi "Musiqqa madaniyati" darslarida musiqani idrok etishni tashkil etish musiqa madaniyati darslarining tuzilishi va darsning tarkibiy qismlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'rta umumiy ta'lim maktablaridagi Musiqqa madaniyati darslarining tuzilishi ovoz sozlash, xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga mos harakatlarni bajarish kabi faoliyat turlaridan iborat bo'lib, bu faoliyat turlarining har birida musiqa idroki yetakchi vazifani bajaradi.- darsning ovoz sozlash qismida o'quvchilar musiqani,

musiqiy tovushlarni idrok etish orqali musiqay tovushlarning aniq balandligini, cho'zimini his qilishni, idrok etishni hamda sof ovoz hosil qilishni o'rganishadi.

- Darsning jamoa bo'lib kuylash qismida o'quvchilar musiqani, musiqiy mavzuni idrok etish orqali sof ovozda ifodali kuylashni o'rganishadi.- darsning musiqa savodini o'rganish qismida o'quvchilar musiqani, musiqiy tovushlarning tuzilishini, nazariy jihatdan idrok etish orqali musiqiy asarlarning strukturasi idrok etishni o'rganishadi.- darsning musiqa tinglash qismi musiqani idrok etishni o'rganishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunda o'quvchilar musiqiy asarlarni tinglab tahlil qilish orqali ularning tuzilishi, registri, tembri, tempi, dinamikasi, tovushlarning past-balandligi, diapazoni hamda alohida berilgan musiqiy asarning asosiy mazmunini aynan tinglash orqali idrok etish malakalariga ega bo'lishadi.- darsning musiqaga mos harakatlarni bajarish qismida o'quvchilar asosan musiqaning tempini, tembrini, dinamikasini, shaklini hamda xarakterini his qilishni, idrok etishni o'rganishadi. Bu o'rinda o'qituvchi o'quvchilarning musiqani idrok etishlarini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi usullardan har bir darsda uning oldindan tuzilgan rejasiga ko'ra turlicha vaziyatlarda foydalanishi mumkin. O'rta umumiy ta'lim maktablaridagi Musiqa madaniyati darslarida musiqani idrok etishni tashkil etish musiqa madaniyati o'qituvchisining yuqorida ko'rsatilgan darsning tarkibiy qismlaridagi imkoniyatlardan har bir alohida olingan darsda qay darajada foydalanishiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.Azizxo'jayeva N. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat» Toshkent:, O'qituvchi», 2006 yil.
- 2.Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari»Toshkent., «Moliya» , TDPU., 2008 yil.
- 3.Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. "Musiqa" nashriyoti, -T., 2010 y
2. Quvvatov R. Musiqa o'qitish metodikasi. "Musiqa" nashriyoti, -T., 2009 y